

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Radjabova

Tarix fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar 322

D.D.J.Nizomitdinov

XV – XVII asr birinchi yarmida nemis tarixshunosligida Amir Temur shaxsi tavsifi va uning harbiy yurushlari talqini 325

Қ.А.Пулатов

Борьба с полигамией, гендерным равенством и секуляристической сущностью в социальных взглядах джадидов: научный анализ 329

ADABIYOTSHUNOSLIK

R.A.Ortiqov

Ingliz bolalar adabiyotidagi sarguzasht-fantastik asarlar poetikasiga doir 336

I.M.Jo'rayev

Zahiriddin Muhammad Bobur merosida xotin-qizlar obrazining tarixiy talqini 341

O.Z.Dadajonov

Maqsud Shayxzodaning "Mirzo ulug'bek" va Bertold Brextning "Galiley hayoti" dramalarida olimlik motivi 350

S.A.Olimjonov

Erix Mariya Remark va Ulug'bek Hamdam asarlarida badiiyat muammolari 354

A.A.Qosimov

The role of mythonyms in Tolkien's works and their linguistic analysis 360

A.A.Qosimov

Linguistic analysis of metaphors in Tolkien's novels 366

Д.Ш.Ибрагимова

Подходы преподавания зарубежной литературы в иноязычном контексте 370

M.N.Abduolimova

Lexical-structural features of mythonyms 376

N.Qurbanov

Intensification and Deintensification Expressed Through Hyperbola in English Novels 380

S.O'.Shermamatova

Teenager image in "Treasure island" by Robert Louis Stevenson 383

N.I.Tairova

XX asr adabiyotida ramziy obrazlarning poetik xususiyatlari 386

S.S.Usmanova

Psixologizm tarixiy asarda yetakchi obraz usuli sifatida 390

A.O'.Abdullayev

Ramz belgining maxsus turi sifatida 395

K.A.Toipvoldiyev

Реальный восток М.Ю.Лермонтова 401

А.А.Касимов, Р.Н.Джагаспанин

Проблема народного героя в литературе как отражение национального самосознания 406

Р.Н.Джагаспанин

Интерпретация образа Степана Разина как воплощение идеалов казачества в романе

В.М.Шукшина "Я пришел дать вам волю" 412

А.Р.Косимов

Сатира – литературный инструмент В.Шукшина (на примере романа «Любавины») 422

О.А.Акбаров

Национальная идентичность и культурная память в современной прозе 427

Э.Ф.Гиздулин

Историческое развитие постапокалиптических мотивов в художественной литературе 431

Ч.Х.Чамолов



УО'К: 93.7

XV – XVII ASR BIRINCHI YARMIDA NEMIS TARIXSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR SHAXSI TAVSIFI VA UNING HARBIY YURUSHLARI TALQINI

ОЦЕНКА ЛИЧНОСТИ АМИР ТИМУРА И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЕГО ВОЕННЫХ ПОХОДОВ В НЕМЕЦКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XV-XVII ВЕКОВ.

THE DESCRIPTION OF THE PERSONALITY OF AMIR TIMUR AND THE INTERPRETATION OF HIS MILITARY CAMPAIGNS IN GERMAN HISTORIOGRAPHY IN THE FIRST HALF OF THE 15TH-17TH CENTURIES.

Nizomiddinov Doniyorjon Jaloldin o'g'li 
Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada XV - XVI asrlarda nemis tarixshunoslida Amir Temur shaxsi qanday talqin qilinganligi, uning bosib oligan hudulari aks etgan. Maqolada nemis tarixshunoslidining XV – XVII asrlarda qay tarzda rivojlanganligi, tarixni yoritishda qaysi usullardan foydalananligi, Germaniyada ilk gumanistik g'oyalarning rivojlanishi va Reformatsiyaning nemis tarixshunosligiga o'z ta'sirini qay darajada ko'satganligi aks etgan. Nemis ritari Yohannes Schiltbergerenning "Sayohatnoma" asari, ilk milliy nemis tarixshunoslari Hartman Shadel, Sebastian Brant, Leonhart Fonsbergerlarning Amir Temur shaxsi va uning dunyoda kuch-qudratga qanday erishganligi to'g'risidagi ma'lumotlari aks etgan. Germaniyada gumanistik g'oyalarning boshqa Yevropa mamlakatlari nisbatan kech rivojlanganligi, nemis ilm-faniga katolik cherkovining qatiq ta'siri, asosiyasi Germaniyaning ko'plab kichik-kichik knyazliklarga bo'linib ketishi natijasida o'zaro knyazliklari o'tasidagi hududiy nizolar tarixshunoslilikka ham ta'sir o'tkazib ilm-fan doiralalarining tashqi dunyodan deyarli uzulib qolganligi natijasida Amir Temur Shaxsi va uning davblatchilik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni Schiltbergerning eslatmalari, turk manbalari, fransuz tarixchilarini orgali ma'lumotga ega bo'lganligi ta'kidlanadi. XV – XVII asrlar birinchi yarmida nemis tarixshunoslari Amir temur shaxsini o'rganishda tahliliy ma'lumotlarga asoslanmay yilnomalar shaklida va hikoyalar tarzida bayon etliganligini bilishimiz mumkin.

Аннотация

В статье рассматривается, как в немецкой историографии XV-XVI веков была интерпретирована личность Амир Тимура, а также отражены территории, которые он завоевал. В статье также показано, как развивалась немецкая историография в XV-XVII веках, какие методы использовались для освещения истории, как развивались гуманистические идеи в Германии и в какой степени Реформация оказала влияние на немецкую историографию. В статье приводятся сведения из «Путеводителя» немецкого рыцаря Иоганна Шильтбергера, а также информации, предоставленной первыми национальными немецкими историками, такими как Хартман Шедель, Себастьян Брант и Леонхарт Фонцбергер, о личности Амир Тимура и о том, как он достиг мировой мощи. Также отмечается, что гуманистические идеи в Германии развивались позже, чем в других европейских странах, что католическая церковь оказывала сильное влияние на немецкую науку, а главное, что Германия была разделена на множество мелких княжеств, что приводило к территориальным конфликтам между ними и влияло на развитие историографии, а также на изоляцию научных кругов от внешнего мира. В результате, сведения о личности Амир Тимура и его государственной деятельности были получены Шильтбергером через его заметки, турецкие источники и французских историков. В первой половине XV-XVII веков немецкие историки, изучая личность Амир Тимура, основывались на хрониках и повествовательных рассказах, а не на аналитических данных.

Abstract

The article examines how the personality of Amir Timur was interpreted in German historiography during the 15th-16th centuries, as well as the territories he conquered. The article also discusses how German historiography developed during the 15th-17th centuries, the methods used to present history, the development of humanistic ideas in Germany, and the extent to which the Reformation influenced German historiography. The article includes information from the Travels of the German knight Johann Schiltberger, as well as the works of early national German historians such as Hartmann Schedel, Sebastian Brandt, and Leonhard Fuchsberger, who provided details about the personality of Amir Timur and how he achieved global power. It is also noted that humanistic ideas developed later in Germany compared to other European countries, and the strong influence of the Catholic Church on German science. Furthermore, Germany's division into many small principalities, leading to territorial conflicts between them, also impacted historiography. As a result, intellectual circles in Germany were almost entirely cut off from the outside world.

The article highlights that Schiltberger, through his notes, Turkish sources, and French historians, acquired information about Amir Timur's personality and his political activities. In the first half of the 15th-17th centuries, German historians studied the personality of Amir Timur, not relying on analytical data but presenting it in the form of chronicles and narrative stories.

Kalit so'zlar: Yohannes Shiltberger, nemis tarixshunosligi, Amir Temur, Leonhart Fronsberger, Maksimilian I, Sebastian Brant, Martin Lyuter.

Ключевые слова: Иоханн Шильтбергер, немецкая историография, Амир Темур, Леонхард Фонцбергер, Максимилиан I, Себастьян Брант, Мартин Лютер.

Key words: Johann Schiltberger, German historiography, Amir Timur, Leonhard Fuchsberger, Maximilian I, Sebastian Brandt, Martin Luther.

KIRISH

Bugungi kunda Amir Temur shaxsi va davlatchilik faoliyati to'g'risida dunyoning ko'plab mamlakatlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Amir Temurni shaxsiga va uning faoliyati bo'yicha tadqiqotlar o'zi tiriklik paytidayoq boshlanganligini ko'rishimiz mumkin. Yevropaning Italiya, Fransiya va Angliya davlatlarida Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyatini qay tarzda olib boriganligin haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgann. Xususan Germaniyada ham Amir Temur shaxsiga oid bir qancha dadqiqot ishlari olib borilgan. Nemis tarixshunoslari o'z asarlarida Amir Temur haqida o'z fikirlarini bayon etib kelganlar. Germaniyada Temuriylar tarixini har tomonlama o'rganish bugungi kunda Germaniya va O'zbekiston munosabatlarini ham yangi pog'onaga olib chiqmoqda. Buning yorqin isboti sifatida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, 2020-yilda Germaniya Federativ Respublikasi to'plamlarining nashr etilganligidir. Sh.M.Mirziyoyev ushbu to'plamni nashr etilishi haqida shunday degan edi: "Shuni mammuniyat bilan qayd etishni istardimki, bunday ilmiy-ma'rifiy loyihalarini amalga oshirish o'zbekiston va Germaniya hamkorligining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda".^[1] Nemis tarixshunoslari tomonidan yurtimiz tarixi haqida yaratgan asarlarini o'rganish va tahlil qilish ham mamlakatimizda rivojlanib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyatining nemis tarixshunoslida tadqiq etilishi alohida o'rganiilmagan mavzu hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda nemis tarixshunoslida Amir Temurning tadqiqi etilishi bo'yicha ayrim ma'lumotlar B.Ermakov va boshqa tarixshunoslarning ayrim mtadqiqotlarida uchratishimiz mumkin.^[2]

O'rta asrlar nemis tarixshunoslida Amir Temur haqida ma'lumot beruvchi ilk manbalardan bir bu Yohannes Shiltbergerning "Reisebuch" (Sayohat kitobi) dir.^[3]

NATIJA VA MUHOKAMA

Yohannes Shiltberger 1381-yil Myunxen va Frayzing oralig'idagi hududda kambag'allashib qolgan ritsar oiladida dunyoga keladi. U tarixchilar tomonidan "nemis Marko Polosi" deb ham yuritiladi. U o'z hikoyalari Vengriya qiroli Szigmund qo'shini tarkibida turklarga qarshi muqaddas urushga otlanganligini ta'kidlab o'tadi. Nemis tarixchisi Hanrix Homann iogan Shiltberger oilada ikkinchi yoki uchunchi farzand bo'lganligi, oilani moliyaviy ahvoli birmuncha og'ir bo'lganligi sababli Ritsar Leonhart Rayhartingerga jandarm bo'lib xizmatga krganligi va oilaviy ritsarlik unvonini qaayta tiklashni maqsad qilib turklarga qarshi kurashga otlanganligini nta'kidlab o'tadi.

Yohannes Shiltberger 1396-yil 25 – 28-sentabr kunlari bo'lib o'tgan Nikopol Usmonli turkalrga asir tushadi va 1402-yil Amir Temur va Boyazid o'rtasida bo'lib o'tgan Anqara jangigacha Boyazid saroyida xizmatkor bo'lib ishlaydi. 1402-yil Anqara jangidan so'nga Amir Temurga asri tushadi va 1410 – 1411-yillarga qadar Temuriylarga xizmatqiladi. Yohanne Shiltberger 1427-yilda o'z yurti Muyunhenga qaytib boradi va gersog Albrekt III taqvodorning hizmatiga kiradi. U ko'rgan-kechirganlarini yozib qoldiradi. Shiltbergerning Syohatnomasi 1475-yilda Maynsda, 1477-yilda Ausburgda nashr etiladi. Bundan tashqari XV asrda 4 marta nashr etiladi.

O'z asarlarida sharq tarixini yoritgan va xususan, Amir Temur shaxsiga qiziqan nemis tarixshunoslari Yohannes Shiltbergerning "Sayohatnomma" kitobiga murojat qilgan. Chunonchi, XVI asr nemis harbiysi va tarixchisi Leonhard Fronsberger o'zining "Kriegsbuch" ("Urush kitobi") asarida Amir Temur va Boyazid o'rtasidagi jangni Schiltbergerning "Sayohatnomasi asosida" yoritadi. Asarni ilmiy jihatdan tadqiq etish asosan XIX asrda boshlangan. 1859-yilda Karl Fridix Neyman tomonidan asar qayta nashr etiladi. 1885-yilda Valentin Langmantel tomonidan Nyurnberg qo'lyozmasi asosida asar "Hans Shiltbergerning sayohatnomasi" nomi ostida Tyubingenda nashr

TARIX

etiladi. Ko'plab tarixchi olimlar Sayohatnomani ortiqcha bo'tirilgan tarixiy haqiqatlardan yiroq deb ta'kidlaydi. Masalan, asarda 1396-yilgai jang haqida Vengriya qiroli Szizmundda 16 ming qo'shin borligini ta'kidlab, Boyazid Yildirimda 200 ming qo'shin mavjudligini bildiradi. 1402-yilgi Anqara jangida Amir Temurda 1 mln 600 ming qo'shin bo'lsa, Boyazid Yildirimda 1 mln 400 ming bo'lganligi haqidagi mubolag'a ma'lumotlarni ko'trishimiz mumkin. Rus sharqshunosi Bartold ham Yohannes Shiltbergeming asarlarini bo'tirishlardan iborat va tarixiy haqiqatlardan biroz yiroq bo'lgan asar sifatida ta'riflaydi. Lekin asar o'zining ta'rixoy haqiatlardan yiroq bo'lishiga qaramay o'z davrining eng yirik tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi.

XV – XVII asrlar birinchi yarmi Germaniya tarixida ilk gumanistik g'oyalarning yoyilishi hamda reformatsiya davri deb nomlanadi. Ushbu davrda germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy diniy va ilm fan sohasida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Germaniyadaga ilm-fan sohasida ham gumanistik g'oyalarning kirib kela boshlashi natijasida rivojlanish yuz ber boshlaydi. Germaniyada tarixni yoritish xronika(yilnama)lar yozish yoki hikoyalar tarzida yozilgan. Germaniyada Amir Temur shaxsi haqida ma'lumot beruvchi yozilgan asarlardan biri bu nemis gumanist-tarixchisi va shifokori Hartman Shedel bo'lib u 1493-yilda Germaniya imperatori Maksimilian I ga bag'ilshlab Nyurenberg yilnomasini yozadi. Ushbu yilnama dastlab lotin tilida yosiladi. Uning "Liber chronicarum cum figuris et ymaginibus ab inicio mundi" ("Dunyoning boshidan raqamlar va tasvirlar bilan yilnomalar kitobi") deb nomlanuvchi lotinchcha variantini 1493-yilda nemis tarjimon Georg Alt nemis tiliga tarjima qiladi. Uning nemischa tarjimas "Das buch Der Croniken und geschichten: mit figuren und bildnissen von anbegin der welt biß auff diese unsere zeit" ("Xronika va hikoyalar kitobi: dunyoning boshidan bizning davrimizgacha raqamlar va rasmlar bilan") deb nomlanadi.[4] Kitobda Amir Temur haqida bir qancha uydurma ma'lumotlar uchraydi. Kitob muallifi bir nech bor Italiya shaharlarida tehsil oladi va u Germaniyada Yohannes Shitbergerning sayohatnomasidan xabrdor bo'lsa ajab emas. Hartman Shedel Amir Temurni yomon ota-onadan tug'ilgan farzand deb ta'riflaydi. U Amir Temurni Boyazid Yildirib bilan bo'gan jangigacha bosib olingen hududlarni Dunay daryosidan Misirgacha deb ataydi. Amir Temur shu darajada qudratli bo'lganligini ta'kidlab uni Rim imperiyasiga qarshi kurashgan Gannibalga qiyoslaydi.

1486 – 1519-yillarda Muqaddas Rim imperiyasi imperatori Maksimilian I davlatni rivojlantirish uchun ilm-fanga dav davlat hukumatini isloh qilishga kata e'tibor qaratadi[5]. Uning davrida imperiya hududida xususan, Germaniyada ham gumanistik harakatlar keng yoyildi. Nemis gumanistik g'oyalari Yevropada alohida mavqega ega bo'la boshladi. Maksimilian I ning o'zi ilm-fan, san'at va falsafiy g'oyalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatladi. U o'z saroyiga tarixchi-gumanis va huquqshunoslarni to'playdi va tarixni o'rganishni buyuradi. Maksimilian I davrida ijod qilgan gumanist-tarixchilardan biri satirk Sebastian Brantdir. U 1518-yilda "Von dem anfang und Wesen der hailigen Statt Jerusalem" ("Muqaddas Quddus shahrining joylashuvi va uning boshlanishi") asarida Quddus shahrida hukumronlik qilgan hukumdorlar, Quddus shahrining ularning qo'l ostiga qanday tushub qolganligi va turklar hukumronligi davrida shaharning hayoti aks ettirilgan. Ushbu asar dastlab lotin tilida yoziladi va shu yilning o'zida muallif tomonidan nemis tiliga tarjima qilinadi. Xususan ushbu asarda, Amir Temurning Usmonli turklar hukumdori Boyazid Yildirim bilan bo'lgan jangi ham tasvirlanadi. Sebastian Brant Amir Temurni o'z mahoratini ko'rsata olgan va xalqni ortidan ergashtira olgan dunyodagi eng qudratli hukumdar sifatida ta'riflaydi.[6] Ammo shuni ta'kidlash kerakki Sebastian Brant Hartman Shedel Amir Temur haqida qanday fikirlarni qayd etgan bo'lsa uni takrorlaydi. Va birgina xalqni ortidan ergashtira olgan hukumdar degan yangi gapni qayd etadi xolos.

Nemis reformatorlaridan biri tarixchi, gumanist, ilohiyotchi Sebastian Frank "Cronika, zeitbuch und geschichtbibl" kitonini yozadi. [7] Sebastian Frank Amir Temurni Albaniya hududlarini ham bosib olgan deb ataydi. U ushbu ma'lumotni qayerdan olganligi haqida ma'lumot qoldirmaydi. Ammo Yohannes Shiltebrger yoki Amir Temur haqida yozgan boshqa Yevropa tarixchilari ham Amir Temurni albaniyani bosib olganligini ta'kidlab otmaydi. Muallif o'z asarida shunday deydi: "U Partiya va boshqa katta hududlarni qo'lga kiritdi. U Skiflar, Iberlar (G'arbiy Georgiya), Albaniyalar va Forslarni hukumronlik ostiga oldi. Mesopotamiya va Armanistonni bosib oldi. U 40 ming otliq va 60 ming piyoda qo'shin bilan Frot daryosidan oshib, Osivoni zabit etdi". Bu Albaniya hududi bugungi kundagi Boqon yarim orolidagi Albaniya davlati hududi bo'lmasadan Kavkaz mintaqasidagi

Ozarbayjon shimoli va Armaniston hududida yashagan ayrim alban qabilalari yashagan hududga nisbatan ishlataligan.[8]

XULOSA

XV – XVII asrlar ikkinchi yarmida yashagan Nemis tarixshunoslari Amir Temur shaxsi va uning harbiy yurushlari haqida farnsuz, italyan tarixchilari yozgan asarlar orqali va bunda tashqari turk manbalari hamda Shiltbergerning hikoylari orqali ma'lumotlarga ega bo'lganlar. Amir Temur haqida ilk gumanist nemis tarixchilari uning buyukligini, harbiy mahoratini yuqori baholagan. Ammo uni dunyoning bosqinchisi, ko'plab begunoh insonlarning o'llimiga sababchi bo'lgan shaxs sifatida ta'riflashgan. Germaniyada ilk gumanistik qarashlarning rivojlanishi va reformatsiya jarayonlari ilm-fanni taraqqiy ettirgan bo'lsa ham xanuz chekov ta'siridan va ilohiyot fanidan uzulmagan tarzda Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyatini yoritganlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. "O'zbekiston madaniy merosi" mualliflik turkumi: "Germaniya federative respublikasi to'plamlari" kitob albomi / F.F.Abduxoliquov, E.V.Rtveladze, N.fon Axenbach, D. Bumiller, D. Ilyasov, K. Raux, A. Miersultan, G. Xelmeke, I Pflyuger-Shindbek, A.Kremer, M. Ando, C. Yansen, X. Shukelt, B. Templin // Toshkent: "East Star Media" MCHJ, "Darakchi inform servis" MCHJ byurtmasiga ko'ra, 2020. – 496 b.
2. B.Ermatov. Amir Temur G'arbiy Yevropa adiblari nigohida. Monografiya. Toshkent / "Navro'z" nashriyoti, 2019. 256 bet
3. Valentin Langmantel. Hans Schiltbergers reisebuch. – Tyubingen. 197 b
4. Hartman Shadel. Das buch Der Croniken und geschichten: mit figuren und bildnissen von anbegin der welt biß auff diese unsere zeit, aus dem lateinischen übersetzt von Georg Alt. Nyurenberg 1496.
5. Gryossing Z. Максимилиан I / Пер. с нем. Е. Б. Каргиной. – М.: ACT, 2005. – 318 с
6. Sebastian Brant. Von dem anfang und Wesen der hailigen Statt Jerusalem. – Strasburg. 1518. 218 b.
7. Sebastian Frank. Cronika, zeitbuch und geschichtbibl.
8. [Акопян А.А.](#) Албания-Алуанк в греко-латинских и древнеармянских источниках / Под ред. П. М. Мурадяна. – Ер.: Издательство Академии наук Армянской ССР, 1987. – 304 с